O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori
______________ Sh.S.Sharipov
202__ yil “___” __________

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TALAFFUZ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60112700 – Maxsus pedagogika (Logopediya) |

**Jizzax -2022**

| Fan/modul kodi 351MYOBTMSH06 | | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 4 | ECTS - Kreditlar 2 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish | | Ma'ruza-10<br>Amaliy-20<br>Jami-30 | 30 | 60 |

2\.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – Maktabgacha yoshdagi bolalarni va talaffuzning tuzilishi va o'ziga xosligi haqida talabalarda aniq tasavvur hosil qilish va bu nutq shaklidan amaliyotda foydalanishga o'rgatishidir.

**Fanning vazifasi** – talabalarni Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuzning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni va talaffuzni shakillantirish kursini o'rganish jarayonida amaliy va laborator mashg'ulotlarda talabalarda bo'lg'usi faoliyati uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni va talaffuzdan foydalanishga o'rgatish, daktilologiya va talaffuzi orqali tarjima qilishga o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 - Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishning mazmuni, maqsadi va egallash metodlari (2 soat)**

Nutq rivojlanishining bog'cha eshigigacha bo'lgan etapi 3 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bola hayotining birinchi oylaridan nutq va eshitish apparatining nutqni egalashiga tayyorlash ishlari olib boriladi. Bola baqiradi, unda gugulash, ovoz chiqarish boshlanadi, eshitish diqqati rivojlanib boradi. Bola o'z diqqatini eshitilayotgan tovushga qaratishga o'rgana boshlaydi.

**2 - Mavzu: Maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchilarga talaffuzni o'rganishga qo'yilgan talablar. (2 soat)**

Qadimda insonlar og'zaki bo'lmagan imo-ishoralar yordami bilan muloqotga kirishganlar. Ba'zi bir olimlarning aytishlaricha, imo-ishora tovushli nutqdan oldin bo'lib o'tgan, insonlar avval imo-ishora orqali muloqotda bo'lganlar, keyin so'zlashishni o'rganishgan. Bugungi kunda so'zlashuv nutq funksiyasi kengash ish davom etib, og'zaki bo'lmagan belgilarni qo'llash doirasi ham etarli

ahamiyatga ega bo‘lib, shartli grafikli belgilar (yo‘l belgilari, osmalar, ko‘rsatmalar va boshqa) va shartsiz turli ishoralardan foydalanish belgilangan.

**3 - Mavzu: Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishdagi turli bosqichlarda talaffuzning o‘rni va ahamiyati. (2 soat)**

Kar bolalarning tasavvur va tushunchalari har xil vositalar yordamida hosil bo‘ladi. Aksariyat tasavvurlar va ayrim birlamchi, oddiy tushunchalar bolalarning kundalik hayotida atrof olam bilan tanishuvi chog‘ida shakllanadi. Odatda, tasavvurlar bolalarning turli faoliyatlari jarayonida kattalar rahbarligida shakllanadi. Ba’zi tushunchalar bolalarning nutqiy muloqoti jarayonida o‘zlashtiriladi. Jonli muloqotda tushunchani ifodalovchi so‘zning mazmuni va ma’nosi aniqlanadi, tushuntiriladi, mustahkamlanadi.

**4 – Mavzu: Talaffuz ustida ish olib borishning tizimi (2 soat)**

Talaffuzga o‘rgatish jarayoni nutq o‘stirish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, atrofdagilarga tushunarli bo‘lgan talaffuzni shakllantirish, hamda muloqotda og‘zaki nutqdan foydalanish ehtiyojini tarbiyalash nazarda tutiladi.

**5 - Mavzu: Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitishagi turli bosqichlarda daktil nutqning o‘rni va ahamiyati (2 soat)**

Ta’limning birinchi yilida bolalarni nutqiy muhitga olib kirish, murojaat etilgan nutqni tushunishga o‘rgatish, bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqini uyg‘otish kerak bo‘ladi. Masalan, sayrga hozirlanayotgan bola sharfini bog‘lay olmaydi, biroq mustaqil ravishda yordam so‘rashni bilmaydi. Tarbiyachi uni tegishli jadvalcha yoniga olib boradi hamda daktil va og‘zaki ravishda «sharfni bog‘lang» deb aytishga undaydi.

### III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar Talabalarga daktillash texnikasini o‘rgatish metodikasi o‘rganish, mashg‘ulotlarni tahlil qilishga, bolalarning daktil va imo-ishora nutqini o‘rganish, tibbiy-pedagogik hujjatlarini tahlil qilishga, psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzishga, bolalar bilan imo-ishora tilining taraqqiyoti o‘rganadilar.

### III.1. Amaliy mashg‘uloti mavzulari

**1-mavzu. Daktil alifbosi (o‘zbekcha).(2 soat)**

**Reja:**

1.Daktil alifbosi (o‘zbekcha) o‘ganish
2. Daktil alifbosini tahlil qilish
3. Daktil alifbosi (o‘zbekcha) imo-ishorada ko‘rsatish mexanizmi

**2-mavzu.Daktillayotgan qo‘ldan har xil darajadagi qiyinlikdagi nutq materialni o‘qish. (2 soat)**

**Reja:**



1. Daktillayotgan qo‘ldan har xil darajadagi mexanizmni o‘rganish
2. Daktillayotgan qo‘ldan har xil darajadagi qiyinlikdagi nutq materialni o‘qish
3. Daktillayotgan qo‘ldan har xil xarakatlarni tahlil qilish

**3-mavzu.Talabalarga daktillash texnikasini o‘rgatish metodikasi. (2 soat)**

**Reja:**

1.Talabalarga daktillash texnikasini o‘rgatish metodikasi
2.Talabalarga daktillash texnikasini o‘rgatishdagi muammolar
3.Talabalarga daktillash texnikasini tahlil qilish

**4-mavzu. Daktillayotgan qo‘ldan o‘qish texnikasi ustida ishlash. (2 soat)**

**Reja:**

1.Daktillayotgan qo‘ldan o‘qish texnikasi ustida ishlash
2. Daktillayotgan qo‘ldan o‘qish texnikasini o‘rgatish yo‘llari
3. Daktillayotgan qo‘ldan o‘qish texnikasini yodlash va ko‘rsatish

**5-mavzu. Daktilli diktant. Diktant tahlili. Xatolarni aniqlash. (2 soat)**

**Reja:**

1.Daktilli diktant.
2.Diktant tahlili.
3. Xatolarni aniqlash.

**6-mavzu. Imo-ishorali nutq. (2 soat)**

**Reja:**

1.Imo-ishorali nutq o‘rgatish yo‘llari
2.Imo-ishorali nutqni tahlil qilish
3. Xatolarni aniqlash.

**7-mavzu. Matnlarni tarjima qilish: o‘quv, siyosiy, badiiy-adabiy. (2 soat)**

**Reja:**

1.Matnlarni tarjima qilish: o‘quv
2. Matnlarni tarjima qilish: siyosiy
3. Matnlarni tarjima qilish: badiiy-adabiy

**8-mavzu. Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili. (2 soat)**

**Reja:**

1.Daktil ishorali nutqning mexanizmlarini o‘rganish
2.Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili
3. Xatolarni aniqlash.

**9-mavzu.Imo-ishora tilining taraqqiyoti.(2soat)**

**Reja:**

1.Imo-ishora tilining taraqqiyoti
2. Imo-ishora tilining bosqichlari
3. Imo-ishora tilini o‘rgatish muammolari

**10-mavzu.Daktil va imo-ishora nutqini o'quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishi. (2 soat)**

**Reja:**

1.Daktil va imo-ishora nutqini o'quv tarbiyani o'rgatish

2.Daktil va imo-ishora nutqini ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishi

3. Daktil va imo-ishora nutqini o'quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishini tahlil qilish

**IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Imo-ishora tilining taraqqiyoti .
2. Yangi so'zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar grammatik toifalar uchun yangi ishoralarning shakllanishi.
3. Yangi ishoralarning imo- ishoralalar tili tizimidagi o'rni.
4. Imo-ishorali nutqni bilishi va kar bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati.
5. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida imo-ishora nutqini, uning texnikasi, yuzdan o'qiy olish imkoniyatini tutgan o'rni.
6. Daktil va imo-ishora nutqini o'quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishi.
7. Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili.
8. Tarjima jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
9. Talaffuzning taraqqiyoti.
10. Yangi so'zlar, tushunchalar, abstrakt tushunchalar, atoqli otlar, atamalar grammatik toifalar uchun yangi ishoralarning shakllanishi.
11. Yangi so'zlarning talaffuz tizimidagi o'rni
12. Talaffuzni bilishi va kar bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llab olishining surdopedagog uchun ahamiyati.
13. Eshituvchilar va karlar orasida muloqot vositasi sifatida talaffuzni, uning texnikasi, yuzdan o'qiy olish imkoniyatini tutgan o'rni.
14. Daktil va talaffuzni o'quv tarbiya va ommaviy-madaniy ishlardan qo'llanilishi.
15. Daktil ishorali nutqning tarjimasi tahlili.



**IV.2. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.**

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, ishlanmalar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishning mazmuni va uni egallash usullari, imo-ishora nutq mazmuni, kar bolalarning talaffuzining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni ***bilishi kerak;***

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda imo-ishora nutqini egallash usullari, daktil nutqidan so'zlashuv vositasi sifatida foydalanish, imo-ishora nutqidan so'zlashuv vositasida tarjima qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda daktil va imo-ishorali nutqni o'rgatish, mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'tkazish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

"Maktabgacha yoshdagi bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish" fani bo'yicha talabalar nazariyada olgan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida amaliyotda takomillashtiradilar. Shuning uchun ushbu fan ixtisoslik fani hisoblanadi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida zamonaviy metodlar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- maxsus pedagogika yo'nalishlari bo'yicha ma'ruzalar darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron texnologiyalar;

- eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, shakllari, usullari, tamoyillari bo'yicha mavzularda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda «Aqliy hujum», «BBB» kabi pedagogik texnologiyalardan;

- rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus korrektsion mashg'ulotlar tashkil etish usullarini aniqlash, tahlil etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda kichik guruh munosabatlari, «PMK», «FSMU», «Elkan», «3 bosqichli intervyu», «Gamburger» texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

5 **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

**Yakuniy nazorat**

Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

**6.** **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


**Asosiy adabiyotlar**

1. Maxsus pedagogika 2014 P.M. Po'latova, L.M.Nurmuhammedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova "Fan va texnologiya" nashriyoti.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Зайцева Г. Дактилология. Жестовая реч. М.: "Просвешение", 2000г.
2. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч М.: "Владос", 2000 г.
3. Сурдопедагогика (под ред.: Речицкой Л.В.) М.: "Владос", 2004 г.
4. Islombekova Z. «Talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi» (Ma'ruzalar matni) T.: 2001 y.
5. Базоев В.З., Паленный В.А. «Человек из мира тишины» ИКТС М.: "Академ книга", 2002 г.
6. 5.Специалная педагогика (под ред.: Назаровой Н.М) М.: "Академия", 2000г.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz
4. www.gov.uz.




**7.** fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universitet Kengashining 202__ yil "___"_________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.

**8.** **Fan/modul uchun mas'ullar:**

G.Temurova Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

**9.** **Taqrizchilar:**

A.Meliboyev – Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri pedagogika fanlari nomzodi

M.Tilakova – Jizzax viloyat XTXQTMO Hududiy markazi instituti kafedra mudiri p.f.f.d. (PhD)